I-chorak

1-Mavzu: Natural son tushunchasi

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga natural son haqida tushuncha berish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning xotirasini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi:mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar natural sonlar haqidagi tushunchaga ega bo’lishlari kerak.

Dars turi: yangi tushuncha bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. **Salomlashish**
2. **Navbatchi axborotini tinglash**
3. **O’quvchilar bilan mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz va ajdodlarimiz qoldirgan buyuk me’ros haqida suxbat o’tkazish. O’quvchilarni buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo’lishga da’vat etish**
4. **4-sinfda o’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish**

Asosiy qism:

Narsalarni sanashda ishlatiladigan sonlar **natural sonlar** deyiladi. Har qanday natural son 10 ta 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlar bilan ifodalanadi.

1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,…. Ko’rinishidagi qator natural sonlar qatori deyiladi.

1 soni eng kichik natural sondir

Natural sonlar qatori cheksizdir. 0 natural son emas.

Quyidagi sonlarni o‘qing: 23, 40, 745, 4548, 3400, 62 048, 85 300, 400 632. VfsSV

a) 4raqami qatnashgan sonlarni aniqlang. Bu sonlarda4 raqami nimani anglatadi?

b) 0 raqami qatnashgan sonlarni aniqlang. Bu sonlarda 0 raqami nimani anglatadi?

1.1 Natural sonlar qatori

Narsalarni sanashda ishlatiladigan sonlar *natural sonlar* deb ataladi.

Har qanday natural son o‘nta 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0 raqamlar bilan ifodalanadi. Sonlarni bunday yozish usuli *o‘n!i sanoq sistemasi* deb yuritiladi.

1 dan boshlab barcha natural sonlarni ketma-ket yozib chiqsak,

1,2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, ... ko‘rinishdagi *natural sonlar qatorini* hosil qilamiz. ∎

Natural sonlar qatorida 1 eng kichik natural sondir.

Har qanday natural songa 1 ni qo‘shsak, natural sonlar qatorida undan keyin keluvchi va undan katta natural son hosil bo‘ladi. Shuning uchun natural sonlar qatorida eng katta son yo‘q. Chunki, eng katta son bor desak, unga 1 ni qo‘shib undan ham katta sonni hosil qilaveramiz.

Natural sonlar qatori cheksizdir, unda eng katta son yo‘q.

Sonlarning o‘nli yozuvida har bir raqam qiymati uning turgan o‘rniga bog‘liq bo‘ladi. Agar, 7 soni yozuvning eng oxirida turgan bo‘lsa, 7 ta birlikni, agar oxiridan ikkinchi o‘rinda turgan bo'lsa, 7 ta o‘nlikni, agar oxiridan uchinchi o‘rinda turgan bo'lsa, 7 ta yuzlikni anglatadi va hokazo. Masalan, 7 soni 127 yozuvda — 7 ta birlikni, 472 yozuvda — 7 ta o‘nlikni, 780 yozuvda esa — 7 ta yuzlikni anglatadi.

0 raqami o‘zi turgan x;onada birorta ham birlik yo‘qligini bildiradi. Bu belgi nol sonini ifodalashda ham ishlatiladi.

0 natural son emas.

…… ..... ■

.Natural son yozuvi bitta belgidan (raqamdan) iborat bo!lsa, bu son — *bir xonali,* ikkita belgidan (raqamdan) iborat bo‘lsa, *ikki xonali son* deb ataladi. Shunga o‘xshash, natural sonlar yozuvidagi belgilar (raqamlar) soniga qarab, uch xonali, to‘rt xonali, besh xonali va hokazo xonali sonlar haqida gapirish mumkin.

Masalan, 1, 3, 6, 9 — bir xonali, 19, 22, 87 — ikki xonali, 307, 976 — uch xonali, 6717, 4500 — to’rt xonali, 20 456, 56 001 — besh xonali sonlardir.

Mustahkamlash:

1. Sonlarni yozishda nechta raqam ishlatiladi?

2. Qanday sonlar natural sonlar deyiladi?
3. Natural sonlar qatori xossasini ayting.

1-mashq.

a) 999+1=1000 b) 100-1=99 d) 13400-1=13399
e) 90999+1=91000 f) 8000-1=7999 g) 32999999+1=33000000

2-mashq.
a) 524 b) 602 d) 8327 e) 1923 f) 4203 g) 6340

4-mashq.

	Mlrd	mln	ming	bir
a)	234	509	234	179
b)		490	324	800
d)	3	392	000	671
e)	234	000	999	000

Baholash:

Uyga vazifa: 17-20 mashq

2-Mavzu: Natural sonlarni yozilishi va o‘qilishi

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga natural son haqida tushuncha berish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish
   Tayanch kompetensiyalar:
   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.
   Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar natural sonlarni o’qilishini, yozilishini bilishlari va kundalik hayotda foydalana olishlari kerak.

Dars turi: yangi tushuncha bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Natural son nechta raqamdan iborat bo’lsa u son shuncha xonali deyiladi. Ikki va undan ortiq xonali sonlar ko’p xonali sonlar deyiladi.

Ko’p xonali sonlarni o’qish uchun ular o’ng tomondan boshlab 3 ta raqamdan iborat guruxlarga ajratiladi. Bu guruxlar sinflar deb ataladi. O’ng tomondagi 1-uchta raqam birliklar sinfi, keyingi 3 ta raqam mingliklar sinfini tashkil qiladi. Ulardan keyin millionlar, milliardlar va xokazo. Millionlar sinfi milllionlar, o’n milllionlar, yuz milllionlar xonasidan tashkil topgan.

Sonni o’qish uchun chapdan o’nggga qarab sonning har bir sinfidagi birliklari soniga shu sinf nomini qo’shib aytib chiqiladi. Eng oxirgi birlar sinfi nomi o’qilmaydi.

Ikki va undan ortiq xonali sonlar- *ko‘p xonali sonlar* deb ataladi.

Ko‘p xonali sonlarni o‘qish uchun ular o‘ng tomondan boshlab uchta raqamdan iborat guruhlarga ajratiladi (eng oxirgi guruh bitta yoki ikkita raqamdan iborat bo'lishi ham mumkin). Bu guruhlar *sinflar* deb ataladi.

0‘ng tomondagi birinchi uchta raqam *birlar sinfin* , keyingi uchta raqam *minglar sinfini* tashkiI qiladi. Ulardan keyin *millionlar, milliardlar* va hokazo sinflar keladi.

1 000 000 - million sonining yozilishi. U qisqacha 1 mln deb ham yoziladi. *Millionlar sinfi - millionlar, o‘n millionlar va yuz millionlar xonasidan* tashki I topgan. Ularni millionlar sinfining birlar, o‘nlar va yuzlar xonasi deb ham ataymiz. Ravshanki, 1 million mingta 1000 ga teng bo‘ladi.

1 000 000 000 - milliard sonining yozilishi. U qisqacha 1 mlrd deb ham yoziladi. 1 milliard 1000 ta millionga teng.

1- misol, Aytaylik 29 405 378 613 soni o‘nli yozuv jadvaliga yozilgan bo'lsin. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, berilgan sonning milliardlar sinfida 29 ta birlik, millionlar sinfida 405 ta birlik, minglar sinfida 378 ta birlik va nihoyat birlar sinfida 613 ta birlik bor.

Sinflar nomi	Milliardl			millionlar			minglar			Birlar		
Sinf xonalari nomi	*yuzla*	*o‘nla*	*birla*	*yuzla*	*o‘nla*	*birla*	*yuzla*	*o‘nla*	*birla*	*yuzla*	*o‘nla*	*Birla*
Son		2	9	*4*	0	5	3	7	8	6	1	3

0‘qilishi: 29 milliard 405 million 378 ming 613

- Sonni o¦qish uchun chapdan o¦ngga qarab sonning har bir sinfidagi birliklari

* soniga shu sinf nomini qo'shib ketma-ket aytib chiqiladi. Eng oxirgi birlar sinfi nomi
• o'qilmaydi. Agar sinfning har uchala xonasida 0 turgan bo‘lsa, bu sinf nomi ham j o'qilmaydi.

29 405 378 613 soni - 2 ta o‘n milliard, 9 ta bir milliard, 4 ta yuz million, 5 ta bir million, 3 ta yuz ming, 7 ta o‘n ming, 8 ta bir ming, 6 ta yuz, 1 ta o·n, 3 ta birdan iborat.

Mustahkamlash:

6-mashq.

1) 53 2) 3441 3) 12600085 4) 1000304060

8-mashq.

a) 3420-40:2=3400 b) (4532+8):(99998-99997)=4540 d) 200·10:5=400

e) (200-199)·(400+1200:2)=1000

9-mashq.

2540+479=3019

10-mashq.

123+123+45=291

Baholash:

Uyga vazifa: 21-23 mashqlar

3-Mavzu: Natural sonlarni yozilishi va o‘qilishi

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga natural son haqida tushuncha berish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar natural sonlarni o’qilishini, yozilishini bilishlari va kundalik hayotda foydalana olishlari kerak.

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Hozirgi dunyoda keng tarqalgan:**1,2,3,4,5,6,7,8,9,0** raqamlari “arab raqamlari” deb atalsada aslida ularning kelib chiqishi hindlarga borib taqaladi.Bu raqamlarni arablar hindlardan o’zlashtirishgan.1120 yilda ingliz faylasufi Adelard buyuk bobokalonimiz al-Horazmiyning arab tilida yozilgan jadvalini ingliz tiliga tarjima qilgan. Shu- sh bu raqamlar “arab raqamlari” deb yuritila boshlandi.1600-yilga kelib bu

Natural sonlar qatorida a) 157 998 sonidan keyin keluvchi; b) 1 001 002 sonidan oldin keluvchi ketma-ket 3 ta natural sonni yozing va o‘qing.

. II Shunday son yozingki, unda quyidagi xona birliklari bo'lsin:

a)yuz 3 ta bir 7 ta ming 0 ta o‘n; b)3 ta yuz 9 ta o‘n 2 ta bir;

d) 7 ta o‘n 9 ta ming 5 ta bir 0 ta yuz; || e) 8 ta ming 3 ta yuz 2 ta bir 3 ta o‘n.

.III. Sonlarni o'nli yozuv jadvaliga joylang va o'qing:

701 234; 370 102 812; 12 374 120 006; 603 400 003 497; 80 005 400.

IV. Sonlarni oldin sinflarga ajratib yozing va o‘qing:

a)12630824504; b) 920103134020;

d) 346006503000; e)165910040509.

0

V. Sonlarni raqamlar bilan yozing:
a) o‘n uch ming olti yuz oltmish ikki; b) yigirma uch million yetmish ikki ming o‘ttiz to‘rt; d) ikki milliard besh yuz uch ming oltmish bir; e) yetti yuz sakson milliard to‘rt yuz million bir yuz yetti ming olti.
.. Amallarni bajarish tartibini ayting va og‘zaki hisoblang:
a) 54 : 27 + 90 : 30; b) (537 + 63) : 100;
d)400 - 14 : 7; e) (2345 + 4571) ■ (400 - 800 : 2).
. Shahardan Obod qishlog'igacha yo‘l 23 km bo'lib, u Ozod qishlog'igacha yo'ldan 3 km uzun. Shahardan Ozod qishlog‘igacha yo‘l necha km?
517 sonini yonma-yon a) 2 marta; b) 3 marta; d) 4 marta yozing.
Hosil bo‘lgan sonlarni o‘qing va so'zlar bilan yozing.
. a) 12 312 123; b) 33 333 333; d) 202 042 004 soni necha xonali? U nechta belgi bilan yozilgan? Yozuvda nechta turli raqam ishlatilayapti?
. 531 020, 2 140 530, 909 444 129 008, 2 850 003, 73 302 100, 12 326 751 074, 93 405 002 sonlarni so'zlar bilan yozing va ularning necha xonali ekanligini ayting. 20, 202, 2020, ... sonlar ketma-ketligi qanday qonuniyat asosida yozilgan. Uning keyingi 3 ta hadini yozing va o‘qing.

12-masala.
448900, 2010, 28095000, 10395000, 17700000, 159, 6800, 430000000000

13-masala.
a) 10 ta b)10 d) 100 e)1000 f)10000 g)100000

14-masala. 4444444

Mustahkamlash:

15-masala. a)149149 b)149149149 d) 149149149149

16-masala. a)40075696m b)149597900000m d)31557600
e)7000000000

Baholash:
Uyga vazifa: 24-27 mashqlar
517517, 517517517, 517517517517
25-masala
a)8 b)8 d)9

4-Mavzu: Kesma. Kesmaning uzunligi

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga kesma haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish
   Tayanch kompetensiyalar:
   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.
   Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar kesmalarni chiza olishlari va o’lchashni bilishlari kerak.

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi
Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar


Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
   Natural son deb nimaga aytiladi?
   Natral sonlar qatri deb nimaga aytiladi?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Daftarda A va B nuqtalarni belgilab ularni tutashtirsak AB kesma hosil bo’ladi. A va B nuqtalar kesmaning uchlari deyiladi

Istalgan ikki nuqtani faqat 1 ta kesma bilan tutashtirish mumkin.




Har bir kesma tayin uzunlikka ega.


2.1. Kesma

Daftaringizda *A* va *B* nuqtalarni belgilab, ularni chizg'ich yordamida tutashtirsangiz *AB kesma* hosil bo'ladi (1- rasm). Uni *BA* kesma deb ham belgilash mumkin. *A* va *B* nuqtalar *AB kesmaning uchlari* deb ataladi.

Istalgan ikki nuqtani faqat bitta kesma bilan tutashtirish mumkin.



1- rasm




2- rasm

2- rasmda *CD* kesma tasvirlangan. *E* nuqta bu *kesmaga tegishli* va u *C* va *D* *nuqtalar orasida yotadi*. *F* va *G* nuqtalar esa bu *kesmaga tegishli emas*.

Kesmalarni sirkul yordamida 3- rasmdagidek taqqoslash mumkin. 3.a- rasmdagi *AB* va *MK* *kesmalar teng* bo'ladi va bu *AB* = *MK* tarzda yoziladi.

3.b- rasmda tasvirlangan *AB* kesma *MK* kesmaning bo'lagidan iborat. Shuning uchun *MK* kesma *AB* kesmadan *uzun*, *AB* kesma esa *MK* kesmadan *qisqa*.



3- rasm

2.2. Kesmaning uzunligi. Uchburchak

Har bir kesma tayin uzunlikka ega.

Kesmaning uzunligini o'lchash uchun oldin o'lchov birligi ya'ni u taqqoslanadigan birlik kesmani tanlashimiz zarur.




4- rasm

Aytalik, o'lchov birligi sifatida *OE* kesma olingan bo'lsin (4- rasm). Uning uzunligini 1 *sm ga* teng deb olamiz. Unda *AB* kesma uzunligi 4 *sm ga* teng bo'ladi. Chunki, AB kesmada *OE* birlik kesma 4 marta joylashadi. Bu *AB* = 4 *sm* kabi yoziladi.

Mustahkamlash:

1-masala.



6-masala.

a) 1420-40:2=1400 b) (232+8):10+124=1484

d) 121:11+12·10=131 e) (203-199)·100+120:2=460

7-masala. 13;23;30;31;32;33;34;35;36;37;38;39;43;53;63;73;83;93

8-masala. 27-8=19 345-(27+19)=299

Baholash:

Uyga vazifa: 23-24 mashqlar

5-Mavzu: Kesma.Kesmaning uzunligi

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga kesma haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar kesmalarni chiza olishlari va o’lchashni bilishlari kerak.

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish

   Kesma deb nimaga aytiladi?

   Kesma qanday belgilanadi?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:


Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham asosiy uzunlik o'lchov birligi sifatida metrqabul qilingan. Shuningdek, metrdan tashqari yana millimetr, santimetr, detsimetr, kilometr kabi o'lchov birliklaridan ham foydalaniladi. Uzunlik o'lchov birliklari orasida quyidagi munosabatlar bor:

1 sm = 10 mm, II 1dm = 10sm, II 1dm = 100 mm,


1m = 10 dm, H 1m = 100sm, || 1 km = 1000 m.

Odatda kesmaning uzunligi chizg'ich yordamida o'lchanadi. 5- rasmda tasvirlangan *AB* kesma uzunligi 4 sm 3 *mm* ga teng.

A *B*



5- rasm



6- rasm

6- rasmda tasvirlangan *AB* kesmada olingan C nuqta uni *AC* va *CB* qismlarga ajratadi. Bu holda *AB* kesmaning uzunligi uning qismlari - *AC* va *CB* kesmalar uzunliklarining yig'indisidan iborat bo‘ladi va bu *AB* = *AC* + *CB* tarzida yoziladi.

Santimetrda ifodalang:

a) 5 dm 8 sm; || b) 3 dm 3 sm; || d) 23 dm 8 sm;

Namuna: 6 dm 2 sm = 60 sm + 2 sm = 62 sm.

11.Detsimetr va santimetrlarda ifodalang:

a) 23 sm; || b) 63 sm; d) 39 sm; e) 214sm

Namuna: 78 sm = 70 sm+8sm = 7 dm 8 sm.

12Og‘zaki hisoblang:

a) 16 + 77 b) 58-26

d) 55+35 e) 35 + 39;

I) 444 : 6.

10-masala.

a) 5 dm 8 sm =58 sm b) 3 dm 3 sm = 33 sm d) 23 dm 8 sm=238 sm

e) 11 dm 4 sm=114 sm

11-masala.

a) 23 sm=2 dm 3 sm b) 63 sm=6 dm 3 sm d) 39 sm=3 dm 9 sm

e) 214 sm=21 dm 4 sm

Mustahkamlash:

12-masala.

a) 16+77=93 b) 58-26=32 d) 55+35=90 e) 35+39=74

f) 4·202=808 g) 100·600=60000 h) 205:5=41 i) 444:6=74

13-masala.Hadichaning 2500 so‘m puli bor edi. U 500 so'mga daftar va 600 so'mga muzqaymoq sotib oldi. Hadicha necha so‘mlik xarid qilgan? Uning yana qancha puli qoldi?

500+600=1100 2500-1100=1400

14-masala.

4- 14.Uydan kinoteatrgacha bo‘lgan masofa 1200 m, maktabgacha bo‘lgan masofa esa 850 m. Uydan maktabgacha bo'lgan masofa kinoteatrgacha bo'lgan masofadan necha metr qisqa?

1200-850=350

Baholash:

Uyga vazifa: 25-27 mashqlar

6-Mavzu: Uchburchak.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilarga uchburchak haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar uchburchak haqidagi tushunchaga to’liq ega bo’lishlari va matematika har bir insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish vositasi ekanligini tushunish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar


Tashkiliy qism:


1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
   Kesmaning uzunligini qanday o’lchanadi?
   Kesmalar qanday taqqoslanadi?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:


Rasmda tasvirlangandek, A,B,C nuqtalarni belgilab, ularni tutashtirsak, uchburchak hosil bo’ladi. A,B va C nuqtalar ABC uchburchakning uchlari, AB,BC,CB kesmalar uning tomonlari deyiladi.

Uchburchak tomonlari yig’indisi uchburchak perimetri deyiladi.





to'rtburchak



beshburchak

6- rasmda *MNLK* toYtburchak, 9- rasmda esa *PQRST* beshburchak tasvirlan- gan. Uchburchak, to‘rtburchak, beshburchak va hokazo shakllar umumiy nom bilan *ko‘pburchak!ar* deb ataladi. Ko¦pburchakning perimetri uning barcha tomonlari uzunliklari yig‘indisidan iborat boladi.

1. Daftaringizga ikkita nuqta chizing. Ularni *R* va Q nuqtalar bilan belgilang va chizg'ich yordamida tutashtiring. Hosil bolgan kesmani yozing.


(2T> 1 O- rasmda tasvirlangan barcha kesmalarni ayting.

a) b)

c

D

N



10- rasm

® 1 1- rasmdagi qaysi nuqtalar *CD* kesmaga tegishli? Qaysi nuqtalar bu kesmaga tegishli emas? *CD* kesmadagi *K* nuqta qaysi nuqtalar orasida yotadi?

4. 12- rasmdagi *KL* kesmani sirkul yordamida qolgan kesmalar bilan taqqoslang. Bu kesma qaysi kesmalardan uzun? Qaysi kesmalardan qisqa?

Mustahkamlash:

21-masala.

1) (3568+232):2=3800:2=1900

2) (592+8):12=600:12=50

3) 21·12-135=252-135=117

4) 19·41+312=779+312=1091

22-masala.

72 kmni 6 soatda; 108 kmni qanchada

Yechish: 72:6=12; 108:12=9

Baholash:

Uyga vazifa: 28-29-mashq

7-Mavzu: Uchburchak.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilarga uchburchak haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar:o’quvchilar uchburchak haqidagi tushunchaga to’liq ega bo’lishlari va matematika har bir insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish vositasi ekanligini tushunish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar


Tashkiliy qism:

Salomlashish
Navbatchi axborotini tinglash
O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
1.Ko’pburchak deb nimaga aytiladi?
2.Uchburchak deb nimaga aytiladi?
3.Uchburchaklar necha xil bo’ladi?
Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Daftaringizga uchburchak chizing va uni belgilang. Uning uchlari va tomonlarini mos belgilar bilan yozing. Uchburchak tomonlari uzunliklarini chizg‘ich yordamida o‘lchang va uning perimetrini toping.

Ko'pburchaklarni daftaringizga chizing va belgilang. Chizg‘ich yordamida ularning tomonlari uzunliklarini millimetrda o‘lchang va perimetrini toping.



Amallarni bajaring:


a) (3568 + 232) : 2; || b) (592+ 8) :12; || d) 21 · 12 –135; || e) 19 · 41+ 312



6 soatda Qancha vaqtda?

AB kesma chizing. Unga tegishli C va *D* nuqtalarni belgilang. Bu nuqtalar *AB* kesmani qanday kesmalarga ajratadi?

A, B, C, D va O nuqtalarni daftaringizga belgilang. O nuqtani qolgan nuqtalarning har biri bilan kesmalar yordamida tutashtiring. Hosil bo‘lgan kesmalarni yozing. Rasmda berilgan kesmalar orasidan eng uzunini va eng qisqasini sirkul yordamida aniqlang. *MN* kesma qaysi kesmalardan uzun va qaysi kesmalardan qisqa ekanligini aniqlang.



.....O

. 9- masaladagi sxema asosida quydagi savollarga javob bering:

a) 1 0 santimetr necha millimetr? Ib) 5 detsimetr necha millimetr?

d) 6 metr necha detsimetr? | e) 2 kilometr necha millimetr?

Millimetrda ifodalang:

a) 5 sm 9 mm; || b) 4 dm 6 sm 7 mm; || d) 9 dm 2 sm.

Santimetr va millimetrlarda ifodalang:

438 mm; || b) 907 mm; || d) 223 mm; | e) 768 mm.

Mustahkamlash:

21-masala.

1) (3568+232):2=3800:2=1900

2) (592+8):12=600:12=50

3) 21·12-135=252-135=117

4) 19·41+312=779+312=1091

22-masala. 72 kmni 6 soatda; 108 kmni qanchada

Yechish: 72:6=12; 108:12=9

Baholash:

Uyga vazifa: 30-31-mashq

8-Mavzu: Tekislik, to‘g‘ri chiziq va nur.

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga tekislik, to'g'ri chiziq va nur haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar: o’quvchilar tekislik , to’g’ri chiziq , nur haqidagi tushunchalarni bilgan holda kundalik vaziyatlarda qulay shart –sharoitlarga olib kelish maqsadida foydalana olish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar


Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
   Uchburchak deb nimaga aytiladi?
   Uchburchak perimetri deb nimaga aytiladi?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Pol, devor, stol, parta, deraza oynasi, maktab doskasi, hovuzda tinch turgan suv sirti tekislik haqidagi tasavvurni beradi. Biroq bu sirtlarning chegarasi bor. Tekislikning esa chegarasi yo’q. u barcha tomonga qarab davom etgan bo’ladi.

Tekislikda AB kesma berilgan bo’lsin. Uni chizg’ich yordamida har ikki uchi tomonga istalgancha davom ettiramiz. Natijada to'g'ri chiziq hosil bo’ladi. U AB to'g'ri chiziq yoki BA to'g'ri chiziq deyiladi.



Har qanday ikki nuqtada bitta to'g'ri chiziq o’tkazish mumkin. To'g'ri chiziqning cheki(oxiri) yo’q. u har ikki tomonga cheksiz davom etgan bo’ladi.

AB kema chizib, uni faqat bir uchi tomonga istalgancha davom ettirsak natijada nur hosil bo’ladi.

Nur bir tomonga cheksiz davom etgani uchun uning ham oxiri (cheki) yo’q.


AB kesma olib, unga chizg‘ichni a rasmda ko‘rsatilgandek qo‘ying va qalam bilan *B* nuqtadan boshlab chiziq chizing. Bu holda, *AB* kesma *B* uchi tomonga qarab davom ettirilgan bo‘ladi (b rasm). Hosil bo‘lgan shaklda *C* nuqtani belgilang. Yuqorida keltirilgan ishni *BC* kesma uchun yana takrorlang. Agar bu ishni qayta-qayta takrorlasangiz, *AB* kesmani *B* uchi tomonga istalgancha davom ettirishingiz mumkin bo‘ladi.




Pol, devor, stol, parta, deraza oynasi, maktab doskasi, hovuzda tinch turgan suv sirti *tekislik* haqida tasavvurni beradi. Biroq, bu sirtlarning chegarasi bor. Tekislikning esa chegarasi yo‘q. U barcha tomonga qarab cheksiz davom etgan bo‘ladi.

Tekislikda *AB* kesma berilgan bo‘lsin. Uni chizg‘ich yordamida har ikki uchi tomonga istalgancha davom ettiramiz. Natijada, *to‘g‘ri chiziq* hosil qilamiz (1- rasm).

U «*AB to‘g‘ri chiziq*» yoki «*BA to‘g‘ri chiziq*» tarzida belgilanadi.



1- rasm




2- rasm



3- rasm

Har qanday ikki nuqtadan faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin. To‘g‘ri chiziqning cheki (oxiri) yo‘q. U har ikki tomonga cheksiz davom etgan bo‘ladi.

Agar ikki to‘g‘ri chiziq umumiy bitta nuqtaga ega bo‘lsa, ular bu nuqtada *kesishadi* deyiladi (2- rasm). *M* nuqta *AB* va *CD* to‘g‘ri chiziqlarning *kesishish nuqtasi* bo‘ladi.



4- rasm

AB kesma chizib, uni faqat bir uchi (masalan, *B* uchi) tomonga chizg‘ich bilan istalgancha davom ettiramiz (3- rasm). Natijada, *nur* hosil qilamiz. U «*AB* nur» tarzida belgilanadi. Bunda, A nuqta *nurning uchi (boshi)* deyiladi va u nurni belgilashda har doim birinchi o‘rinda yoziladi.

Nur bir tomonga cheksiz davom etgani uchun uning ham oxiri (cheki) yo‘q.

AB to‘g‘ri chiziqda olingan *O* nuqta uni ikkita *OA* va *OB* nurlarga ajratadi. Ular *bir-birini to‘ldiruvchi nurlar* deb ataladi (4- rasm).

Mustahkamlash:

8-masala.

1) 223 sm = 2 m 2 dm 3 sm
2) 1852 sm = 18 m 5 dm 2 sm
3) 59 sm = 5 dm 9 sm
4) 3783 sm = 37 m 8 dm 3 sm

Baholash:

Uyga vazifa: 9-12masala.

9-Mavzu: Shkalalar va koordinatalar. Sonlar nuri.

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga shkalalar, koordinatalar va sonlar nuri haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar: o’quvchilar koordinatalar sistemasini bilgan holda sonlardan to’g’ri foydalana olish

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish


   Tekis deganda nimani tushunasiz?

   To’g’ri chiziq deb nimaga aytiladi?

   Nur deb nimaga aytiladi?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:


Odatda kesma uzunligin chizg’ich yordamida o’lchanadi. Chizg’ichda sonlar bilan bir qatorda chiziqchalar hamda sonlar bor. Bu chiziqchalar va sonlar birgalikda shkalani hosil qiladi.



Shkalalar asosan ruletka, soat, termometr, tarozi, avtomobil spidometri kabi o’lchov asboblarida ishlatiladi.


1 kg= 1000 g 1 sr=100 kg 1 t=1000 kg

Nurning oxiri bo’lmagani uchun istalgan natural sonlarni nurda tasvirlash mumkin. Natijada cheksiz shkala hosil bo’ladi. Bu shkala sonlar nuri yoki koordinatalar nuri deyiladi.



O,E,A,B nuqtalarga mos kelgan 0,1,2,3,… sonlar bu nuqtalarning koordinatalari deyiladi va O(0), E(1),A(2),B(3) tarzida yoziladi.


Odatda kesma uzunligi chizg‘ich yordamida o‘lchanadi. Chizg‘ichga nazar solsangiz unda sonlar bilan bir qatorda chiziqchalar ham borligini ko‘rasiz. Bu chiziqchalar chizg‘ichni teng bo‘lakchalarga (bo‘lmalarga) ajratadi. Chiziqcha va sonlar birgalikda *shkalan* hosil qiladi.



1- rasm

Chizg‘ichning har bir bo‘lmasining uzunligi 1 mm ga teng bo‘lib, u bo‘lmaning qiymatini bildiradi. 1- rasmda tasvirlangan *AB* kesma uzunligi 40 mm ga yoki 4 sm ga teng.

Shkalalar asosan ruletka, soat, termometr, tarozi, avtomobil spidometri kabi o'lchov asboblarida ishlatiladi (2- rasm).



2- *rasm*

2. a- rasmda tasvirlangan haroratni o'lchaydigan asbob — termometr shkalasi 40 bo'lmadan iborat bo‘lib, u Selsiy shkalasi deb nomlanadi. Uning har bir boMmasi *1 gradus (1 °C)* ni ifodalaydi. Termometr 30°C ni ko'rsatayapti.

2. b- rasmda tasvirlangan tarozi shkalasiga qarab pomidorning massasi 2 kg 700 g ekanligini aniqlash mumkin.

Massaning tonna (t), sentner (sr) kabi o‘lchov birliklari ham bo‘lib, ular bir-biri bilan quyidagi tengliklar bilan bog‘langan:

1 kg = 1000 g, | 1 sr = 100 kg, || 1t= 1000 kg.

Mustahkamlash:

1-masala.
a) harorat b) og’irlik d) uzunlik e) tezlik f) vaqt

2-masala. a) 3^0C b) $1,5^0C$

Baholash:

Uyga vazifa: 17-19-masala.

10-Mavzu: Shkalalar va koordinatalar.Sonlar nuri

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilar bilan shkalalar, koordinatalar va sonlar nuriga doir misol va masalalar yechish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar: o’quvchilar koordinatalar sistemasini bilgan holda sonlardan to’g’ri foydalana olish

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish

   Shkalalar deb nimaga aytiladi?

   Shkalalarga misollar keltiring?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Boshi O nuqtada bo‘lgan, chapdan o'ngga qarab gorizontal yo'nalgan *OX* nurni chizamiz (3- rasm). Bu yo‘nalishni nur tasvirining o‘ng tomoniga qo‘yNgan strelka ko‘rsatib turibdi. Bu nurda biror *E* nuqtani belgilaymiz. Hosil bo‘lgan *OE* kesmani *birlik kesma* sifatida olamiz.

Nurning boshi O nuqta tagiga O sonini, *E* nuqta tagiga esa 1 sonini yozamiz. Bu holda, *E nuqta OX nurda 1 sonini tasvirlaydi.*

0 *E A B*



1----1---- 1 ----1---- 1 ----1-----1 ----1-----h

1 2 3 4 5 6 7 8 *3- rasm*

OX nurda 2 sonini tasvirlash uchun nurga birlik kesmani O nuqtadan ketma-ket ikki marta qo'yamiz. Hosil bo‘lgan *A* nuqta nurda 2 sonini

tasvirlaydi. Agar nur boshidan birlik kesmani uch marta ketma-ket qo'ysak, 3 sonining nurdagi tasviri — *B* nuqtani hosil qilamiz va hokazo.

Nurning oxiri bo‘lmagani uchun istalgan natural sonlarni nurda yuqoridagi usuldan foydalanib tasvirlash mumkin. Natijada cheksiz shkalani hosil qilamiz. Bu shkala *sonlar nuri* yoki *koordinatalar nuri* deb ataladi.

O,*E, A, B* nuqtalarga mos kelgan 0, 1, 2, 3 sonlari bu *nuqtalarning koordinatalari* deb ataladi va 0(0), *E{* 1), *A(*2), 6(3) tarzida yoziladi.

KoYib turganingizdek, strelka bo'ylab nuqtalarning koordinatalari o‘sib boradi va aksincha, strelkaga qarama-qarshi yo‘nalishda nuqtalar koordinatalari kamayib boradi.

Sonlar nurida har qanday natural son nuqta bilan tasvirlanib, o‘zining muayyan o'rniga ega.

4.3. Ustunli diagrammalar

Shkalalardan ustun shaklidagi diagrammalarni tuzishda ham foydalaniladi. Ustunli diagrammalar turli ma’lumotlarni o'zaro taqqoslash va ko‘rgazmali qilib tasvirlashda ishlatiladi.

Misol. Jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida ustunli diagramma tuzing.

A’lochi o'quvchilar haqida ma'lumot

Sinflar	5- A	5- B	5- D
A'lochi o'quvchilar soni	8	6	5

Yasash: Diagrammani uchta ustundan iborat qilib tuzamiz: 1- ustun — 5- A, 2- ustun — 5- B, 3- ustun — 5- D sinfdagi a’lochi o‘quvchilar sonini aniqlasin. A'lochi o‘quvchilar sonini ko‘rsatuvchi shkalani tik holatda chizamiz.

A'lochi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, bo‘yi mos balandlikka ega bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi ustunlarni shkala yoniga ketma-ket chizamiz. Hosil bo‘lgan

8-masala.

a) 2 kg 453 g=2453 g
b) 1 kg 810 g = 1810 g
d) 2 sr 20 kg 349 g =220349 g
e) 5 sr 14 kg 25 g = 514025 g

9-masala.

a) 7532 g=7 kg 532 g
b) 2350 g=2 kg 350 g
d) 52345 g =52 kg 345 g
e) 127532 g=127 kg 532 g

Mustahkamlash:

10-masala.
a) 2340 kg=23 sr 40 kg
b) 75207 kg =752 sr 7 kg
d) 123320 kg= 1233 sr 20 kg
e) 10020 kg=100 sr 20 kg

Baholash:
Uyga vazifa: 20-23-masala

11-Mavzu: Shkalalar va koordinatalar.Sonlar nuri

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilar bilan shkalalar, koordinatalar va sonlar nuriga doir misol va masalalar yechish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar: o’quvchilar koordinatalar sistemasini bilgan holda sonlardan to’g’ri foydalana olish

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

Salomlashish

Navbatchi axborotini tinglash

O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish

1. Koordinata o’qi deb nimaga aytiladi?
2. Nuqtaning koordinatasi deb nimaga aytiladi?

Uy vazifalarini tekshirish


Asosiy qism:

Yasash: Diagrammani uchta ustundan iborat qilib tuzamiz: 1- ustun - 5- A, 2- ustun - 5- B, 3- ustun - 5-D sinfdagi a’lochi o'quvchilar sonini aniqlasin. A’lochi o‘quvchilar sonini ko'rsatuvchi shkalani tik holatda chizamiz.

A’lochi o'quvchilar sonidan kelib chiqib, bo‘yi mos balandlikka ega bo'lgan to⌈g⌈ri toYtburchak shaklidagi ustunlarni shkala yoniga ketma-ket chizamiz. Hosil bolgan

shakl (4- rasm) – a'lochi o'quvchilar sonini ko'rgazmali qilib ifodalovchi *ustunli diagrammadan* iborat bo'ladi.


Ba'zida ustunlar o'rniga tegishli shakl yoki rasmlarni ham qo'yish mumkin.




4- rasm

1. 2- rasmda tasvirlangan asboblar yordamida qanday kattaliklar o'lchanadi? Har bir asbob bitta bo'lmasining qiymati nimaga teng? O'lchanayotgan kattaliklar qiymatini toping.

2. 5- rasmdagi termometrlar qanday haroratni ko'rsatayapti?





Mustahkamlash:

13-masala.

1-qo'shiluvchi	234	12328	1569
2-qo'shiluvchi	258	342	14331
Yig'indi	492	12670	15890

Baholash:

Uyga vazifa: 24-26-masala

12-Mavzu: Natural sonlarni taqqoslash. Katta kichik.

Darsning maqsadi:

1. **Ta'limiy:** O'quvchilarga natural sonlarni taqqoslash haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me'rosi bilan o'quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo'llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko'rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar: sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi


Dars jihozi: darslik, konspekt, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazish
   Diagrammalar necha xil bo'ladi?
   Ustunli diagrammaga misol keltiring?
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Ikkita turli natural sonlarni taqqoslash deganda ularning qaysi biri katta yoki jkichikligini aniqlashga aytiladi.



Ikki natural sondan qaysi biri sonlar nurida chapda joylashgan bo'lsa, o'sha son kichik bo'ladi. Aksincha, qaysi biri o'ngda joylashgan bo'lsa, o'sha son katta bo'ladi.

8 soni 5 dan katta, lekin 10 sonidan kichik. Bu belgilar yordamida $5<8<10$ qo'shtengsizlik ko'rinishida yoziladi.


Ko'pxonali sonlarni quyidagicha taqqoslash mumkin: 5612 (4 xonali) > 963 (3 xonali)

Chunki, 1-son 4 xonali, ikkinchi son uch xonali (4>3)

Turli xonali sonlarni taqqoslaganda qaysi birining xonalari ko'p bo'lsa, o'shanisi katta bo'ladi.

Bir xil xonali sonlarni taqqoslashda ularning chap tomonidan boshlab bir xil nomdagi xonalarida turgan raqamlarini o’zaro taqqoslab chiqish kifoya.

Ikkita turli *natural sonlarni taqqoslash* deganda, ularning qaysi bin katta yoki kichikligini aniqlashga aytiladi. Sonlar nuri natural sonlarni taqqoslash uchun juda qo‘l keladi (1- rasm).



1- *rasm*

Ikki natural sondan qaysi biri sonlar nurida chapda joylashgan bo‘lsa, o‘sha

* son kichik bo'ladi. Aksincha, qaysi biri o'ngda joylashgan bo'lsa, o‘sha son katta : bo'ladi.

Sonlarni taqqoslash natijasi tengsizlik ko'rinishida, katta (>) yoki kichik (<) belgilari yordamida yoziladi. 1- rasmda 5 < 8, chunki sonlar nurida >4(5) nuqta 6(8) nuqtaga qaraganda chaproqda joylashgan.

8 soni 5 dan katta, lekin 10 sonidan kichik. Bu belgilar yordamida 5 < 8 < 10 *qo'shtengsizlik* ko‘rinishida yoziladi.

5.2. Turli xonali sonlarni taqqoslash

Ko‘pxonali sonlarni quyidagicha taqqoslash mumkin:

,5612 , > , 963 ,

4 xonali 3 xonali

Chunki, birinchi son to‘rt xonali, ikkinchi son esa uch xonali (4>3).

“if- Turli xonali sonlarni o‘zaro taqqoslaganda qaysi birining xonalari ko‘p bo‘lsa,

* o'shanisi katta bo'ladi.

5.3. Bir xil xonali sonlarni taqqoslash

a) [8]512 > [3]925. Chunki, har ikkala son to‘rt xonali. Birinchi sonning minglar xonasidagi 8 raqami, ikkinchi sonning minglar xonasidagi 3 raqamidan katta (8>3).

b) 3|8]42 > 3^]18. Chunki, har ikkala son to‘rt xonali. Ularning minglar xonasidagi raqamlari bir xil 3 ga teng bolsada, birinchi sonning yuzlar xonasidagi 8 raqami ikkinchi sonning yuzlar xonasidagi 6 raqamidan katta (8 > 6).

d) 65 43|7] > 65 43(2]. Chunki, har ikkala sonning birlar xonasidan boshqa barcha xonalaridagi raqamlari o‘zaro teng. Lekin, birinchi sonning birlar xonasidagi 7 raqami, ikkinchi sonning birlar xonasidagi 2 raqamidan katta (7 > 2).

Mustahkamlash:

1-masala.

a) A(1)<B(8) b) A(17)<B(38) d) A(583)>B(539)

3-masala. a) 10<20<30 b) 33<44<55 d) 32<43<54

5-masala. 300<305<310

Baholash:

Uyga vazifa: 15-17-masala.

13-Mavzu: Natural sonlarni taqqoslash. Katta kichik.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga natural sonlarni taqqoslash haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me'rosi bilan o'quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo'llay olish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko'rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar: sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

Salomlashish

Navbatchi axborotini tinglash

O'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazish

1. Natural sonlarni taqqoslash deb nimaga aytiladi?
2. Bir xil xonali natural sonlarni qanday taqqoslanadi?
3. Har xil xonali natural sonlar qanday taqqoslanadi?

Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Sonlar ost tushadigan qilib yozilsa, taqqoslash jarayoni osonlashadi. Haqiqatdan ham.

8 6 5 2
Й 8 8
6 5 2
Si

8=8, 6=6, 5=5, 2=2, 6>3. Demak, 865268 > 865231 .

Bir xil xonali sonlarni o'zaro taqqoslashda, ularning chap tomonidan boshlab j bir xil nomdagi xonalarida turgan raqamlarini o'zaro taqqoslab chiqish kifoya. f „

Kesmalarni taqqoslash natijasi ham katta (>) yoki kichik (<) belgilari yordamida yoziladi. *AB* kesmaning *CD* kesmadan qisqaiigi *AB* < *CD*, *MN* kesmaning *KL* kesmadan uzun ekanligi esa *MN* > *KL* tarzda yoziladi.

Savollarga javob bering! ?

1. Ikki sonni taqqoslash deganda nima tushuniladi?
2. Sonlar nurida ikkita natural son qanday taqqoslanadi?
3. Besh xonali son kattami yoki yetti xonali son? Nega?
4. Turli xonali sonlar qanday taqqoslanadi?
5. Bir xil xonali sonlar qanday taqqoslanadi?

Sinfda bajariladigan mashqlar

CD *A* va *B* nuqtalarning qaysi biri sonlar nurida chapda yotadi?

a) A (1) va *B* (8); || b) A (17) va B (38); || d) *A* (583) va B (539).

2. a) 18 va 27; b) 2090 va 2095 sonlari orasidagi barcha natural sonlarni ayting.
3. Qo'sh tengsizlik ko'rinishida ifodalang:
   a) 20 soni 10 sonidan katta, lekin 30 sonidan kichik;
   b) 44 soni 55 sonidan kichik, lekin 33 sonidan katta;
   d) 32 soni 43 sonidan kichik, 43 soni esa 54 sonidan kichik.
4. a) 10 dan kichik; b) 12 dan katta, lekin 17 dan kichik bo‘lgan barcha natural sonlarni sonlar nurida ifodalang.
5. Karim bir son o‘yladi. Bu sonning oxirgi raqami 5 bilan tugaydi va bu son 300 dan katta, ammo 310 dan kichik. Bu qaysi son?
6. Quyidagi ikkita sondan qaysi biri kattaligini aniqlang va javobingizni dastlab «>» belgisi bilan, so‘ng «<» belgisi bilan ifodalang. Hosil bo'lgan tengsizlikni o‘qing. a) 10 yoki 18; || b)75yoki79; | d) 147 yoki 170; || e) 11 876 yoki 11 765;
   f) 2 660 008 yoki 2 665 001; || g) 6 877 500 600 yoki 6 876 999 999.
7. Quyidagi sonlarning ba’zi raqamlari o'rniga yulduzchalar qo‘yilgan. Ulardan qaysi biri katta ekanligini toping va tengsizlik ko‘rinishida ifodalang:
   a) 87*** va 86***; b) *5*** va *8**.

Mustahkamlash:

10-masala.

114<123<133

11-masala.

a) 456500>49900 b) 36106>36099 d) 77417>8432

e) 5000<49999 f) 8720000<8720019 g) 930000<1000001

Baholash:

Uyga vazifa: 18-19-masala.

14-Mavzu: Natural sonlarni taqqoslash. Katta kichik.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: O'quvchilarga natural sonlarni taqqoslash haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me'rosi bilan o'quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo'llay olish

Rivojlantiruvchi: O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish

Tayanch kompetensiyalar:

Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko'rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

Fanga oid kompetensiyalar: sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

Salomlashish

Navbatchi axborotini tinglash

O'tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o'tkazish

Uy vazifalarini tekshirish


Asosiy qism:

8. Quyidagi sonli tenglik va tengsizliklarning qaysilari to'g'ri?

a) 322 + 128 = 450; | b) 25 • 22 = 5500; | d) 132 : 11 = 18 – 6;

e) 58 • 65 = 15625 : 25; | f) 24 • 28 < 625; | g) 1320 : 40 > 35.

9. Rasmdagi kesmalar uzunligini chizg'ich yordamida o'lchang va ularni o'sib borish tartibida yozing.



10. 114 dan katta, lekin 133 sonidan kichik hamda oxirgi raqami 3 bilan tugaydigan sonni aniqlang.

1-masala. Sonlarni taqqoslang.

a) 20<38 b) 95<99 d) 137<180 e) 10876>10765

f) 2060008<2065001 g) 5876500600<6876999999

2-masala. Sonlarni taqqoslang

a) 12***>10*** b) *2***>*3**

3-masala. Quyidagi sonli tenglik va tengsizliklarning qaysilari to’g’ri?

a) 122+28=150 to’g'ri b) 25·20=550 noto’g’ri

d) 121:11=18-7 to’g’ri e) 38·45=14625:25 noto’g’ri

f) 25·40<925 noto’g’ri g) 1300:10>45 to’g’ri

Mustahkamlash:

4-masala. 100 dan katta lekin 120 dan kichik hamda oxirgi raqami 0 bo’lgan sonni toping.

100<110<120

5-masala. Sonlarni taqqoslang

a) 350500>39900 b) 26166>26092 d) 7407>6432

e) 5463<54609 f) 712345<723456 g) 31020<3010201

6-masala. Xat tashuvchi kabutar xatni 130 km uzoqlikdagi manzilga olib borishi lozim. Agar kabutar tezligi 50 km/soat bo’lsa, u maktubni: a) 2 soatdab) 3 soatda manzilga olib bora oladimi?

Yehish: a) 2·50=100 100<130 - 2 soatda manzilga olib bora olmaydi

b) 3·50=150 150>130 - 3 soatda manzilga olib bora oladi

Baholash:

Uyga vazifa: 20-22-misollar .5 tadan test tuzib kelish

15-Mavzu: Masalalar yechish.

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy:** O’quvchilarga natural sonlarni taqqoslash haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish
2. **Tarbiyaviy:** O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish
3. **Rivojlantiruvchi:** O`quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o’rgatish

   Tayanch kompetensiyalar:

   Axborot bilan ishlash kompetensiya elementi: mavzu doirasida ko’rsatilgan multimedia ilovalariga ongli munosabat bildirish.

   Fanga oid kompetensiyalar: matematik masalarni yechishda tarixiy ma’lumotlarni bilishlari kerak.

Dars turi: olgan bilim malaka ko’nikmalarni rivojlantiruvchi

Dars jihozi: darslik, konspekt, ko’rgazmali qurollar, tarqatma materiallar

Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Navbatchi axborotini tinglash
3. O’tilgan mavzular yuzasidan savol-javob o’tkazish
4. Uy vazifalarini tekshirish

Asosiy qism:

Amaliy mashg‘ulot: Jadvallar va ma’lumotlar bilan ishlash

Siz jadvallar bilan allaqachon tanishsiz. Kundalik daftaringiz, sinf jurnali, navbatchilar ro‘yxati — jadvallarga misol bo‘la oladi. Jadval tuzishdan maqsad, biror mavzuga oid ma’lumotlarni tartibga solishdan va ulardan foydalanishni osonlashtirishdan iborat.

1- *misol.* 0‘quvchi yangi o‘quv yili oldidan do'kondan narxi 7000 so‘m bo‘lgan bitta sumka, narxi 400 so‘m bo'lgan 20 ta daftar, har biri 200 so‘m bo'lgan 3 ta ruchka, narxi 1200 so‘m bo‘lgan 2 ta rangli qalamlar to‘plami sotib oldi.

Bu ma'lumotlar asosida jadval tuzing. Jadvalda har bir o‘quv qurolining narxi, miqdori, qiymati va jami o‘quv qurollari uchun necha so‘m sarflangani aks etsin.

Yechish: Jadvalning ustunlarini nomlab chiqamiz. Birinchi ustunga tartib raqami, ikkinchi ustunga «0‘quv qurollari nomlari» va keyingi ustunlarga «Bir donasining narxi», «Miqdori» va «Qiymati» deb yozib

qo‘yarniz. Shundan so‘ng, berilgan ma’lumotlardan foydalanib jadvalni to‘ldiramiz. Oxirgi qatorga esa, «Jami tolangan pul», degan so‘zlarni yozib qo‘yamiz.

№	0‘quv qurollari	Bir donasining	Miqdori	Qiymati
1.	Sumka	7000	1	
2	Daftar	400	20	
3	Ruchka	200	3	
4.	Rangli qalamlar	1200	2	
	Jami to'langan pul	**-**	**-**	

Jadvalning oxirgi ustunini to‘ldirish uchun, har bir qatordagi o‘quv qurollarining bir donasi narxini, ularning miqdoriga ko‘paytirib, shu qatorning oxirgi ustuniga yozamiz. Bu bilan har bir o‘quv quroliga jami necha so‘m to‘langanligini topamiz. So‘ng esa, oxirgi ustundagi hamma sonlarni qo‘shib, yig‘indini oxirgi ustunning oxirgi qator bilan kesishish joyiga yozamiz. Bu son o'quv qurollari uchun to'langan jami pulning miqdorini bildiradi.

№	0‘quv qurollari	Bir donasining	Miqdori	Qiymati
1	Sumka	7000	1	7000
2	Daftar	400	20	8000
3	Ruchka	200	3	600
4.	Rangli qalamlar	1200	2	2400
	Jami to'langan pul			18000

Mustahkamlash:

a) 24,35,43,312,2079 sonlarini rim raqamlari bilan yozing.

b) 5000 yil avval Qadimgi misrliklar birni-I, o’nni-∩, yuzni- *9*, belgilari bilan tasvirlashgan. Masalan 234 ni *99*∩∩∩IIII tarzida yozishgan. Qadimgi Misrda 237 va 618 sonlari qanday yozilgan?Rim raqamlari orqali 2317 soni qanday yoziladi?

c) Arab raqamlarining asl vatani qayer?

Baholash:

Uyga vazifa: 5 tadan test tuzib kelish

16-Mavzu: Masalalar yechish.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilarga natural sonlarni taqqoslash haqida tushuncha berish.Unga doir misol va masalalar yecha olish

Tarbiyaviy: O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson sifatida voyaga yetishiga hissa qo`shish. Ajdodlarimiz buyuk me’rosi bilan o’quvchilarni tanishtirish,olingan bilimlarni hayotda qo’llay olish

